



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I

2023 - yil « 10 » avgust 353 -son

Toshkent shahri

Oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi
ixtisoslashtirilgan maktablarga
2023/2024-o'quv yili uchun qabul
parametrlarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarga 2023/2024-o'quv yili uchun tasarrufida ushbu ta'lim muassasalari bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining takliflari asosida shakllantirilgan o'qishga qabul qilish parametrlarini tasdiqlash maqsadida

BUYURAMAN

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son qaroriga muvofiq, 2023/2024-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalari huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul parametrlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tasarrufida ixtisoslashtirilgan maktablari mavjud oliy ta'lim muassasalari rektorlariga:

ixtisoslashtirilgan maktablarga o'quvchilarni 2023/2024-o'quv yili uchun tasdiqlangan qabul parametrlariga qat'iy rioya qilgan holda, o'rnatilgan tartibda qabul qilish choralari ko'rsin;

tasdiqlangan qabul parametrlarini ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilsin, keng jamoatchilik va ota-onalar e'tiboriga yetkazsin.

3. Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti (B.Oxunov) 1-noyabrga qadar ixtisoslashtirilgan maktablarning 2023/2024-o'quv yili uchun tasdiqlangan qabul parametrlarini inobatga olib, 2023-moliya yili uchun tasdiqlangan xarajatlar smetalariga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorati vazirning birinchi o'rinbosari K.Karimov zimmasiga yuklansin.

Vazir



I.Abduraxmonov

NUSXA
ASLIGA TO'G'RI

**Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktablarga
2023/2024 o'quv yiliga o'quvchilarni qabul qilish rejasi ko'rsatkichlari**

T/r	Ixtisoslashtirilgan maktab nomi	Qabul rejasi
	Respublika bo'yicha jami:	250
1	Samarqand davlat universiteti huzuridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	50
	7-sinf aniq fanlar (fizika, matematika)	50
2	Urganch davlat universiteti huzuridagi fizika-matematika va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan maktab	125
	7-sinf aniq fanlar (fizika, matematika)	50
	7-sinf aniq fanlar (matematika, xorijiy til)	75
3	"TIQXMMI" milliy tadqiqotlar universiteti huzuridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	75
	7-sinf aniq fanlar (fizika, matematika)	50
	7-sinf aniq fanlar (matematika, xorijiy til)	25